



## BOLALARDA SHAXSIY XISLATLARNING VUJUDGA KELISH XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Yuldashev Dilshodjon  
Ma'murovich

<sup>2</sup>Akbarova Ma'rifat

<sup>3</sup>Karimova Xabibaxon

<sup>1</sup>Qo'qon DPI ,Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

<sup>2</sup>Talaba

<sup>3</sup>Talab

**Annotatsiya:** mazkur maqolada yangi tug'ulgan chaqaloqdagi irsiylik, reflekslar, xislatlar, fazilatlarning nomoyon bo'lism davrlari ,xislat va xususiyatlarning xosilaviyligi, tayanch yug'ma xislatlar haqida fikr yuritilgan.

Har bir insonga xos bo'lgan potentsial shaxsiy xislatlar (hosilaviy hislatlar) miqdori, insoniy xislatlar, shaxsiy xususiyatlarni tugallangan holda shakllanishi, bolalar yoshlarini korrektsiyalash foizi, yoshlar oralig'i ruhiy va tarbiyaviy tuzatish ishlarining samarasi ,ijobiy natijalar foiz, qayta tarbiyalash va shaxsiyatni tuzatish samarasi foizni tashkil etishilishi haqida fikr yuritilgan.

Yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki davrlarida tug'ma reflekslar va instinktlariga tayangan holda yashaydi. Odatda insonga ovqatlanish, o'z hayoti uchun kurashish va nasl qoldirish kabi instinktlar xos deb hisoblanadi. Bola ulg'aya borgan sari unda tashqi va ichki olamdan olingan axborotlarga asoslangan holda yangi reflekslar va tushunchalar hosil bo'la boradi.

Insonda irsiy reflekslardan tashqari uning genotipiga mos holda bir qancha tug'ma shaxsiy xususiyatlari, fazilatlari to'plami ham mavjuddir. To'g'ri, insonning shaxsiyati, undagi xislatlar hayotining dastlabki davrida tarbiya va uning tashqi olam bilan o'zaro munosabati natijasida shakllanadi. Lekin ayrim shunday xususiyatlarni fazilatlar borki, bularning muayyan to'plami barcha odamlarda tug'ma holda mavjud bo'ladi. Bular bola hayotining boshlang'ich davrlarida deyarli ko'zga tashlanmaydi, lekin u ulg'aya borgan sari (tahminan 2,5-3 yoshlar atrofida) o'zlarini namoyon etishni boshlaydi.

Zamonaviy pedagogikada insonga xos bo'lgan barcha asosiy xususiyatlarni unga bolalikda tarbiya natijasida berilgan faol harakatlar va intilishlar mahsuli deb

qaraladi. Bu fikr insoniyatning ko'plab avlodlarida hayotiy sinovdan o'tgan va albatta mutlaqo to'g'riliqi shubhasiz. SHu bilan birga, bola esini tanib, o'zini onglashni boshlashi bilanoq hech bir tashqi intilish va tarbiya yordamisiz unda namoyon bo'ladigan xususiyatlarni ham ko'zga tashlanadi.

Agar irsiy reflekslar odamning biologik yashovchanligini ta'minlasa, tug'ma shaxsiy xislatlar va fazilatlari uning ijtimoiy yashovchanligiga hizmat qiladi. Bularni tayanch (tabiiy) xislatlar deb atash mumkin. Chunki keyinroq faol maqsadli tarbiya

(yoki bunday tarbiyaning yo'qligi) natijasida bu xislatlar asosida odamda boshqa yangi xislatlar paydo bo'ladi, shakllanadi. Bularini esa hosilaviy hislatlar deyish mumkin. SHaxsdagi tayanch xislatlar va xususiyatlar undagi qolgan borcha xislatlarning shakllanishi yoki namoyon bo'lishiga ta'sir etadi. Insonning hayoti mobaynida tarbiya va tajriba natijasida shakllanadigan boshqa xislatlar va xususiyatlar hosilaviy bo'ladi.

Tayanch xislatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

shaxsiyatparastlik (egoizm);  
o'zini himoya (muhofaza) qilish;  
erkinlikka intilish;  
qiziquvchanlik (tanimish va o'rganishga moyillik);  
moslanuvchanlik;

sabab va oqibat, umumiy va xususiy, oddiy va murakkab kabi dialektik kategoriyalarga amal qilish (onglash emas). Hayotiy tajribalar asosida shunday kategoriyalarni onglesh yotadi.

baholash va shu asosda tanlash;  
hamkorlik qilish.

Bularning ichida salbiylari yo'q, boshqacha qilib aytganda tug'ma yomon odamlar bo'lmaydi. Bu xislatlar sog'lam, me'yor darajasida o'sib-ulg'ayayotgan har qanday bolada bo'ladi. Ular shaxsning yakka holda, individual yashovchanligini ta'minlaydi, shu nuqtai-nazardan foydali. Lekin maxsus, shunga rejalashtirilgan tarbiya oqibatida yoki odatdag'i, lekin nazorat qilinmayotgan tarbiya natijasida ham odamda yomon xislatlar paydo bo'lishi mumkin.

Tayanch xislatlar sof holda bola hayotining boshlang'ich davrlaridagina, shunda ham eng sodda ko'rinishlarda tashqi va ichki ta'sirlovchilarga munosabatshaklida namoyon bo'ladi. Tahminan 6-7 yoshlarga kelib bolada sof tayanch shaxsiy hislatlar qolmaydi.

Bola shaxsiyati va ruhiyati murakkablasha borgan sari bu tug'ma hislatlar zamirida yangi, uning ijtimoiy hayotga moslanishiga hizmat qiladigan hosilaviy xislatlar va fazilatlar vujudga keladi. Bolada yangidan hosil bo'layotgan xususiyatlarning tarkibi, miqdori va sifati uning qanday muhitda va qaysi yo'nalishda faol tarbiyalanayotganiga bog'liq. Bu o'rinda shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, hech qanday yo'naltirilgan va maqsadli tarbiya olmayotgan bolada ham yangi fazilatlar shakllanaveradi. Bunda faol tarbiyachi vazifasini atrof-muhit va boladagi mavjud tug'ma hislatlar to'plami bajaradi. Lekin bu fazilatlar-ning tarkibi va mazmuni ongli, maqsadli tarbiya olib o'sayotgan bolanikidan farq qiladi.

Shaxsning ijtimoiy qimmati uning jamiyat tarkibida qanchalik muvaffaqiyat-li va samarali yashay olishi bilan o'lchanadi. Har bir insonga xos bo'lgan potentsial shaxsiy xislatlar (hosilaviy hislatlar) miqdori 200 dan ortiq. Bu xislatlarga jamiyat-ning munosabati nuqtai-nazaridan ularni ijtimoiy foydali va ijtimoiy foydasiz deb ikki guruhga ajratish mumkin. Binobarin, bola tarbiyasining bosh maqsadi unda imkonli boricha ko'proq ijtimoiy foydali hosilaviy xislatlar va fazilatlarni shakllan-tirishdan iborat. SHuningdek, ularni ifodalash va farqlash uchun "ijobiy va salbiy hislatlar" degan iboralar ham keng tarqalgan

Bunda insoniy hislatlarning tabiatи va dinamikasiga tegishli quyidagi xususiyatlarni nazarda tutish lozim.

Odamda insoniy xislatlar, shaxsiy xususiyatlar butun, tugallangan holda shakllanadi. Masalan, bog'cha yoshida, boshlang'ich sinflarda, yuqori sinflarda yoki voyaga etgandan so'ng shakllanadigan xislatlar bo'lmaydi. SHuningdek, muayyan xislat, bo'lishi mumkin bo'lgan potentsial darajasiga nisbatan qisman, chorakta, yarim miqdorda shakllanmaydi. Xislat yo bo'ladi, yoki bo'lmaydi. Lekin uning amalda namoyon bo'lishini (yoki bor bo'lsa ham umuman namoyon bo'lmasligini) biror darajada ifodalash mumkin. Boshqacha qilib aytilsa, insonda mavjud bo'lgan biror hislat to'liq emas, balki qisman namoyon bo'lishi hammumkin yoki umuman ko'zga tashlanmasligi ham mumkin. Lekin turmushda, psixologik amaliyotda ba'zan shaxsdagi u yoki bu xislatning sust namoyon bo'lishi uning to'lik shakllanmaganligini (demak amalda yo'qligini) yo bo'lmasa mazkur xislatning uni istisno qiladigan yoki namoyon bo'lishiga halaqit beradigan boshqa ustinvor hislatlar bilan to'sib qo'yilishini anglatadi. Bu o'rinda aytilganlarga izoh kiritish tartibida shuni ta'kidlamoqchimizki, odamdagи ayrim mavjud xislatlarning namo-yon bo'lishiga unda mavjud bo'lgan boshqa bir hislat halaqit berishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, biror ijobiy yoki salbiy xislat, garchi shakllan-gan bo'lsada, ikkinchi bir ijobiy yoki salbiy hislatning yuzaga chiqishiga to'siq bo'lishi, uni niqoblashi mumkin. Masalan, kuchli rivojlangan or-nomus hissi mavjud bo'lgan qo'rqoqlik hissini engishi va aksincha, mavjud qo'rqoqlik hissi odillik hissidan ustun kelishi mumkin.

Shakllanib bo'lgan hislat va fazilatni boshqacha mazmunda va yo'nalishda qilib qayta tuzatish juda qiyin va ko'pincha umuman mumkin emas. Bunday tuzatish (korrektsiya) endi faqat bolaning yoshiga bog'liq bo'lib, bunda atrof muhit, tarbiyachining shaxsi, tarbiyalash usullari unchalik katta rol o'ynamaydi. Boshqacha qilib aytaganda, bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa undagi tarbiya nuqsonlarini va salbiy hislatlarni tuzatish shunchalik osonroq amalga oshadi. Bunga 6-8 yoshlar oralig'i kiradi, shu yoshlardagi korrektsiyaga jalb etilgan bolalarning 90 foizi va undan ko'prog'ida ijobiy natija olish mumkin. 8-12 yoshlar oralig'ida ruhiy va tarbiyaviy tuzatish ishlarining samarasi odatda past bo'ladi, ijobiy natijalar 50 foiz va undan kamroq bolalardagina yuzagi chiqishi mumkin. 13-16 yoshlarda qayta tarbiyalash va shaxsiyatni tuzatish samarasi bir necha foizni tashkil etadi holos. Bola balog'atga etgandan so'ng esa umuman bunday tuzatish-larni amalga oshirish mumkin emas.

Kimlardir bunga e'tiroz bildirib, bolaligida yomon tarbiyalangan va salbiy hislatlarga ega bo'lgan ayrim kishilarining keyinchalik tarbiya va yaxshi muhit ta'sirida yaxshi odam bo'lib ketganligi yuzasidan hayotiy misollarni keltirishlari mumkin. Bunday quvonchli hollar albatta, jamiyatda uchrab turadi. Lekin bular yuqorida aytib o'tilgan ta'rifni inkor eta olmaydi. Insoniyatning minglab yillar mobaynida to'plangan hayotiy tajribasi, psixologiya va pedagogikaning zamonaviy qarashlari asosida shuni dadil e'tirof etish mumkin: ijtimoiy noto'g'ri shakllangan shaxsiyatni tuzatgandan ko'ra uni avval boshidan to'g'ri shakllantirish osonroq va ishonchliroq amalga oshadi, qayta tarbiyalash ishlarini ham bolaning kichik yoshligida amlga oshirish samarasi yuqori bo'ladi. Bu o'rinda yana shu narsani unutmaslik kerakki, odamda shakllanib bo'lgan hislatlar, fazilatlar va qobiliyatlar muayyan tarbiya va korrektsiya natijasida butunlay

yo'q bo'lib ketmaydi, aniqroq aytadigan bo'lsak - umr mobaynida hech qachon yo'q bo'lmaydi.

Masalan, kichik yoshidan yolg'onchilik yoki o'g'rilik qilib kelgan yoki narkotik moddalar iste'mol qilib yurgan 10-12 yoshli bolalarni turli tarbiyaviy va psixologik vositalar yordamida bu yo'ldan butunlay qaytarishga muvaffaq bo'lindi deylik. Haqiqatdan ham, hayotda shunday yaxshi misollarni uchratish mumkin. Ya'ni, bu bolalar o'sib-ulg'aygach ularning hayotida yuqoridagi kabi salbiy va zararli ko'rinishlar va hodisalar biror marta ham takrorlanmasligi mumkin. Bunda tashqi nazorat (oila, maktab, jamoa) va ichki nazorat (ruhiy va aqliy zo'riqish yoki o'zini tiyishga majbur qilish) muhim rol o'ynaydi. Lekin ilgari egallangan, his etilgan malakalar, ko'nikmalar, ruhiy holatlar haqidagi hotira qoladi. Bu xotira (eskicha qilib aytadigan bo'lsak "shayton") odamda bir umrga qoladi va uni istalgan vaqtida turli tashqi va ichki sabablarga ko'ra kelgusida o'z domiga tortish ehtimoli saqlanib qoladi - bunday bolalarning boshqa bolalarga qaraganda shunday ijtimoiy foydasiz harakatlarga immuniteti susaygan bo'ladi. Shu sababdan ham yoshlidan ijtimoiy foydasiz va havfli yo'llarga kirgan odamlarni keyinchalik tuzatib bo'lmaydi yoki bundaylarning juda oz qismini, shunda ham juda cheklangan doirada tuzatish mumkin xolos (masalan jinoyatchilikning turli ko'rinishlari, ahloqiy buzuqliklar, alkogolizm, narkomaniya va hokazo).

### **Adabiyotlar:**

- A.I.Sherbakov «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum» T.1991y.  
Б.Р.Кадиров «Способности и склонности» Ташкент «ФАН», 1990.г.  
Е.Г‘озиев «Tafakkur psixologiyasi» Toshkent —О‘qituvchil, 1990y.  
Z.Qurbanova «Kichik maktab yoish psixodiagnostikasi» Namangan, 2004.y.